



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

PENSIYA TIZIMINI ISLOH QILISHNING XORIJ TAJRIBALARI VA ULARDAN FOYDALANISH XUSUSIYATLARI

Shomansurova Zilola Abduvaxitovna,
Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti., i.f.n.

Tursunov Zohidxo‘ja Orifovich,

Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

Mamlakatning milliy pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirishning o'ziga hos xususiyatlari ham aynan jismoniy shaxslarga, ya'ni ijtimoiy to'lovlarni amalga oshiruvchilar uchun ularning erkin ravishda davlat ixtiyoriy pensiya ta'minoti yoki professional pensiya ta'minoti tizimlariga o'z ajratmalarini o'tkazishda erkin tanlov asosida amalga oshirishlari uchun sharoit yaratilishi muhim o'rinn tutadi. Misol uchun, Buyuk Britaniyada ish beruvchilar tomonidan yaratilgan shaxsiy pensiya dasturlari yoki professional pensiya tizimi doirasida o'zlarining ta'minotini davlat tizimidan qisman «chiqish» imkoniyatiga egalar. Lekin shu bilan birga, rivojlangan mamlakatlarning aksariyati pensiya to'lovlari bo'yicha kafolatni o'z zimmalariga olgan holda to'lovlarni amalga oshrib borishadi.

1 – jadval Pensiya to'lovlarini amalga oshirish davlatlar tomonidan majburiy bo'lgan pensiya tizimi tiplari (yoshga doir pensiyalar)¹

| Tizim turlari | Formula turi | Jamg'arilishi | Boshqaruv shakli | Mamlakatlar |
|---|---|---------------------------------------|------------------|---|
| Ijtimoiy sug'urta | Belgilangan to'lovlar | Birdamlik yoki qisman jamg'ariladigan | Ommaviy | Kanada, Germaniya |
| Shaxsiy hisob | Belgilangan badallar | Jamg'arma | Xususiy | Chili, Lotin Amerika davlatlari |
| Provident jamg'armalar | Belgilangan badallar | Jamg'arma | Ommaviy | Indiya, Keniya |
| Shartli – jamg'armalar | Belgilangan badallar | Jamg'arma | Davlat | Rossiya, Polsha, Frantsiya, Shvetsiya |
| Nodavlat pensiya fondlari | Belgilangan to'lovlar yoki belgilangan badallar | Jamg'arma | Xususiy | Buyuk Britaniya, Rossiya, Kolumbiya, AQSh, Yaponiya |
| Ish beruvchilarning majburiy pensiyalari | Belgilangan to'lovlar yoki belgilangan badallar | Jamg'arma | Xususiy | Avstralaliya, Shvedtsariya |
| Shartli majburiy (mehnat shartnomasi talab qilinadigan) | Belgilangan to'lovlar yoki belgilangan badallar | Jamg'arilmaydigan | Xususiy | Gollandiya, Shvetsiya |

¹ <https://www.imf.org/ru/home> - Xalqaro valyuta jamg'armasi axborot sayti ma'lumotlari



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Rivojlangan mamlakatlarning milliy pensiya tizimlari quyida keltirilgan klassifikatorlarga javob bera oladigan, o‘zinng xilma-xilligi bilan fuqarolar uchun maqbul sharoitlar yaratadigan mexanizmlardan tashkil topadi:

- pensiya to‘lovleri yoki davlat ijtimoiy yordamlari miqdori qatiy belgilangan to‘lov larga asoslangan tizim;
- ishchilarining ish haqi yoki eng kam oylik ish haqi miqdorlari bilan bog‘liq bo‘lgan pensiyalar tizimi;
- davlat tashkilotlari yoki korporativ pensiya jamg‘armalari tizimi;
- turli hildagi pensiya ta’motiga asoslangan pensiya tizimi.

Deyarli barcha rivojlangan mamlakatlar o‘z fuqarolariga moddiy ehtiyojlarini qondirishga yetarli darajadagi pensiyalar bilan ta’minlash uchun davlat pensiyasi tizimlarini takomillashtirishadi. Misol uchun, Gollandiya va Irlandiyada davlat o‘z pensionerlari uchun ularning turmush tarzini darajasini ta’minlaydigan qat’iy miqdordagi bazaviy pensiyalar bilan ta’minlaydi. Bundan tashqari, Gollandiyada asosiy pensiya bilan birga, barcha xodimlar qo‘srimcha pensiya dasturi bilan qamrab olinishiga majburlar, bu bo‘yicha zaruriy normativ baza ham shakllantirilgan bo‘lib, pensionerlarning pensiya miqdorlari davlat pensiyalari va unga qo‘srimcha komponent evaziga “pensiyalarni qoplash koeffitsienti” 65-175% ni tashkil etadi.

Buyuk Britaniyada, Kanada va AQShda taqsimlovchi mexanizmga asoslangan davlat pensiya ta’moti, pensionerlarning daromadlarini o‘rta darajada 50-60% ni qoplasa, Germaniya, Lyuksemburg, Finlyandiya, Frantsiya va Norvegiyada mazkur ko‘rsatkich oylik ish haqining 60-75% ni tashkil etadi.

Shu tariqa, deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarda asosiy pensiya ta’moti tizimi sifatida taqsimlovchi mexanizmga asoslangan hamda ish beruvchilari tomonidan ishlovchilari uchun jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovleri bilan to‘ldirib borilayotgan davlat pensiya ta’moti (solidar tizim) asosiy o‘rin tutadi.

Shuningdek, ish beruvchilari tomonidan ishlovchilari uchun jamg‘arib boruvchi pensiya to‘lovleri mexanizmi asosan xususiy pensiya jamg‘armalariga to‘lovlarini o‘tkazib borilishi bilan bir vaqtida, yuqori malakali xodimlarni rag‘batlantirishga qaratilgan tadbirlar sifatida amalga oshiriladi.

Mazkur mexanizmalarni rag‘batlantirish va rivojlantirish maqsadida aksariyat rivojlangan davlatlar ish beruvchilarning pensiya to‘lovlariga soliq imtiyozlarini ko‘llashadi. Germaniya, Yaponiya, Gollandiya, Buyuk Britaniya va AQShda



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

ishlovchilarning 40% ortig‘i ish joylardagi pensiya dasturlari orqali jamg‘armalarni amalga oshirishadi.

Rivojlangan mamlakatlarning pensiya ta’minoti tizimining uchinchi elementi bo‘lib, ishchilarning shaxsiy ixtiyoriy pensiya dasturlari asosida jamg‘armalarni amalga oshirishlari hisoblanadi. Ushbu tizimlar to‘liq moliyalashtirish tizimi asosida faoliyat ko‘rsatib, ishlovchilar tomonidan miqdorlari aniq belgilangan to‘lov (ajratma)larni amalga oshirilishini taqazo etadi. Shu bilan birga ta’qidlash joyizki, mazkur tizimda ishlovchilar va pensiya oluvchilar o‘zlarining omonatlari va investitsion risklari bo‘yicha o‘zları javorbgar bo‘ladilar.

Rivojlangan mamlakatlarda xususiy pensiya ta’minoti tizimlarida akkumulyatsiyalashgan mablag‘larning miqdori turli mamlakatlarda turlicha bo‘lib, Gollandiyada yalpi ichki mahsulotining 70%dan ortig‘ini tashkil etsa, Buyuk Britaniya, Frantsiya va Germaniyada ushbu mamlakatlar yalpi ichki mahsulotining 5%dan ortiq summani tashkil etmaydi. Ya’ni xususiy pensiya ta’minoti tizimini rivojlanishi uchun zaruriy tashkiliy, huquqiy va iqtisodiy imkoniyat va sharoitlar yaratilgan mamlakatlarda ushbu tizimda mablag‘larning jamg‘arilishi nisbatan ko‘proq summani tashkil etadi.

2-jadval Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda davlat pensiya ta’minoti tizimining xarakteristik ko‘rsatkichlari²

| Mamlakat | Pensiyaga chiqish yoshi (erkak/ayol) | Ijtimoiy to‘lovlarni to‘lash davri (yil) | Pensiya hisoblashda inobatga olinadigan davr | Qolash koeffitsienti (ish haqqiga nisbatan) | Pensiyalarni indeksatsiyasi mexanizmi |
|-----------------|--------------------------------------|--|--|---|---------------------------------------|
| AQSh | 65/65 | 35 | Ijtimoiy to‘lovlar to‘langan barcha yillar | 41% | Iste’mol narxlari indeksi |
| Yaponiya | 65/65 | 40 | Ijtimoiy to‘lovlar to‘langan barcha yillar | 30% | Oylik ish haqqi |
| Germaniya | 65/65 | 40 | Ijtimoiy to‘lovlar to‘langan barcha yillar | 60% | Oylik ish haqqi |
| Frantsiya | 60/60 | 41 | Eng yaxshi 25 yil | 50% | Iste’mol narxlari indeksi |
| Italiya | 62/57 | 40 | Ohirgi 5 yil | 80% | Iste’mol narxlari indeksi |
| Buyuk Britaniya | 65/60 | 50 | Ijtimoiy to‘lovlar to‘langan barcha yillar | 20% | Iste’mol narxlari indeksi |
| Shvetsiya | 65/65 | 30 | Eng yaxshi 15 yil | 60% | Iste’mol narxlari indeksi |

² <https://www.imf.org/ru/home> - Xalqaro valyuta jamg‘armasi axborot sayti ma'lumotlari



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Rivojlangan mamlakatlarda uchta pensiya ta'minoti tizimi, ya'ni davlatning qayta taqsimlanadigan, jamg'ariladigan va xususiy pensiya ta'minoti tizimlarning mavjudligi, bu ushbu mamlakatlarning fuqarolari uchun uchala pensiya ta'minot tiimlaridan ham bir vaqtida foydalaniladi degani emas. Kupchilik rivojlangan mamlakatlarning pensiya oluvchilari o'zlarining 40% gacha bo'lgan daromadlarini yuqorida qayd etib o'tilgan pensiya ta'minoti tizimlarining biridan ta'minlanadilar. Qolgan daromadlari esa o'zlarining omonatlari va boshqa daromadlari hisobiga qoplab boriladi.

Deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarda yuqorida qayd etib o'tilgan tizimlar turli hil proportsiyalarda amalda bo'lishlari mumkin va bu esa o'z navbatida ishlovchi va ijtimoiy to'lovlarni amaga oshiruvchilar uchun o'zlarining kelgusida pensiya ta'minotini bilan sug'urtalab borishlarini tizimlar tanlovi asosida amalga oshirishlari mumkinligi bilan xarakterlanadi.

Xalqaro Valyuta Fondi tomonidan 2024 yilga qadar O'zbekiston Respublikasining makroiqtisodiy prognozi amalga oshirilgan³. Mazkur davrga qadar Yali ichqi mahsulot yillik 5-6% ga o'sishi va inflyatsiya darajasi 17,5%dan 7,4% pasayishi qayd etilgan. Ushbu prognoz ko'rsatkichlari davlat pensiya ta'minoti tizimi uchun ham muhim hisoblanib, uning moliyaviy barqarorligi va daromadlarning xarajatlarni qoplashini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun ahamiyatlidir. Aynan shu maqsadda, O'zbekiston Respublikasi davlat pensiya ta'minoti tizimining 2020-2050 yillar uchun bashorat qilinishi zururati, ya'ni pensiya tizimining uzoq muddatli rivojlanishini prognozlashtirish, pensiya islohotlarning ehtimolga eng yaqin stsenariyalarining ta'sirini modellashtirish va baholash o'tkazildi.

Hisob-kitoblar, tahlil va prognozlar 1990 yillardan boshlab Juhon bankining mijoz-mamlakatlarida pensiya siyosatini tahlil qilish vositasi sifatida ishlab chiqilgan va ishlatib kelayotgan PROST (Pension Reform Options Simulation Toolkit) modeli yordamida amalga oshirildi.

Prognoz natijalari asosan bir nechta bazaviy yo'nalishlarga shartli ravishda bo'lib o'rGANildi. Xususan:

Demografik o'zgarishlar va ularning pensiya tizimiga ta'siri. So'nggi 55 yil davomida sayyoramiz aholisi ikki baravardan ortiqqa ko'paydi va BMT hisob-kitoblariga ko'ra kelgusi 11-12 yil ichida aholi ko'payishining yangi to'lqini yuz

³ IMF World Economic Outlook Database, October 2018, <https://www.imf.org/external/pubs/ft/weo/2018/02/weodata/index.aspx>



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

berishi va 2050 yilda dunyo aholisi soni 2 milliardga ortib 9,8 milliardni tashkil etishi kutilmoqda.

1990 yillardan boshlab O‘zbekistonda boshqa sotsialistik tuzum mamlakatlari singari tug‘ilish darajasi keskin kamaydi. Tug‘ilish koeffitsienti 1991 yilda bitta onaga o‘rtacha 4,2 bola to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2000 yilga ushbu ko‘rsatkich 2,6 gacha kamaygan. So‘nggi yillarda ham tug‘ilish koeffitsienti kamayishda davom etdi, lekin bir muncha past sur’atlarda, ya’ni 2017 yilda bitta onaga 2,4 bola to‘g‘ri keldi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining O‘zbekiston bo‘yicha qilgan makroiqtisodiy prognozlarlariga asosan bosqichma-boqich pasayishi va 2040 yillar o‘rtalaridan boshlab har bir ayolga 1,8 bola to‘g‘ri kelishi hisob-kitob qilingan. Tug‘ilishning pasayish tendentsiyasi asosan shahar aholisi sonining oshishi, yoshlarning oliv ta’limga qabul qilish soninining ortishi, kattaroq yoshda nikoh qurishning o‘sishi hamda aholining zamonaviy turlarga o‘tishi hamda boshqa global omillarning o‘sishi bilan bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. <https://www.imf.org/ru/home-> Xalqaro valyuta jamg’armasi axborot sayti ma’lumotlari
2. IMF World Economic Outlook Database, October 2018, <https://www.https://www.imf.org/external/pubs/ft/weo/2018/02/weodata/index.aspx>